

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LIY T'ALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

* Ro'yxatga olindi:

"Tasdiqlayman"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

S. Sharipov

№ 100-18-1/2

28.08.2023 yil.

2023 yil.

2023 yil.

"AGROSANOAT MAJMUASI IQTISODIYOTI"

FAN DASTURI

Bilim sohasi	200000 -	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Fan sohasi	230000 -	Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Mutaxassislik	5230100 -	Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalar bo'yicha)

Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis institutida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Sheraliyev A. – SamISI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi katta o'quvchisi.

Taqrirlashchilar:

Mustafayev G. S. – SamISI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi PhD, dots. v.b.

Xalimov Sh. – "Erester super star" OK rahbari.

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

«Aghosanoat majmuasi iqtisodiyoti» kursi iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qiyotgan talabalar uchun umumkasbiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Kursni o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasining qonunlaridan, agrar sohasini rivojlantirish bo'yicha hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalardan, shuningdek agrosanoat majmuasida bo'layotgan islohotlardan foydalanish lozim.

Kursda eng muhim o'rinni agrosanoat majmuasi faoliyatini shakllantirishga oid masalalar va bu borada amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo'lgan ish ko'lam, agrosanoat korxona va tashkilotlarida faoliyat samaradorligi, moliyaviy natijalar va daromadlarga bog'liq masalalar egallaydi.

«Aghosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fani, «iqtisodiyot nazariyasi», «Tadbirkorlik asoslari», «Milliy va jahon iqtisodiyoti», «Marketing», «Menejment», «Solliq va solliqqa tortish», «Servis tizimi faoliyati asoslari», «Korxonalar iqtisodiyoti», «Industrial va innovatsion iqtisodiyot», «Mintaqaviy iqtisodiyot» va boshqa bir qator iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liq.

Ushbu kursda agrosanoat majmuasiga qarashli korxona va tashkilotlarda xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini hozirgi davr talablariga mos kelgan holda tahlil qilish va rejalashtirish va ularni iqtisodiy jihatdan asostash masalalarini, kompyuter va elektron hisoblash mashinalaridan foydalanilgan holda zaruriy ko'nikmalarni amaliy darslarda olish ta'minlanadi. Amaliy darslarda agrosanoat majmuasining shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari va boshqa muhim masalalar atroflicha o'rganiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning o'rganish maqsadi – talabalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakat agrosanoat majmuasi iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalari to'g'risida talab qilinadigan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifalari – talabalarni agrosanoat majmuasining mohiyati va uning tarkibi bilan tanishtirish, majmuat tarmoqlarini rivojlantirish uchun zarur bilimlar bilan qurollantirish, ularni agrosanoat majmuasi tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va ularni barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, davlatimizning agrar-iqtisodiy siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlarini, mamlakat agrosanoat majmuasini istiqbolga rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashda zarur qarorlar qabul qilish, iqtisodiy qonunlarning agrosanoat majmuasida amal qilish xususiyatlarini o'rgatishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, iqtisodiy xodisa va jarayonlarga ustbiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti – o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- majmuani rivojlantirishni prognozlash va iqtisodiy tahlil qilish usullarini qo'llay olish; agrar sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish usullarini; ishlab chiqarishda mavsumiylik, tabiiy xavflarni hisobga olish; mavjud real raqobat muhitini tahlil qilish, raqobatbardoshlikni oshirish usul va yo'llarini tanlash; iqtisodiy tahlil natijalaridan foydalanish haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;

- mamlakat agrosanoat majmuasining mohiyati, uning ahamiyati va tarkibini majmuani ishtirokchilarga barqaror rivojlantirish strategiyasini; majmuani rivojlantirish prognozlash va iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslarini; majmuani ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning yo'llarini; majmuani samaradorligini oshirish va takomillashtirish uslubiyotlarini; mamlakat va mintaqaviy agrosanoat majmuasida ishlab chiqarishni joylashtirish, ixtisoslashtirishning asoslarini; majmuani mahsulot va xizmatlariga baholarning shakllanishi hamda istemolchilarga servis xizmat ko'rsatish strategiyalarini; majmuaning raqobatbardoshligini ta'minlashning usul va yo'llarini **bilish va ulardan foydalana olishi**;

- boshqaruvning zamonaviy konsepsiyasi asosida majmuani boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish; iqtisodiy tahlil qilish usullarini qo'llay olish; bozor va raqobat muhitini tadqiq etish, majmuani faoliyatini ishtirokchilarga prognozlash usullaridan foydalanish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fanga kirish

Asosiy qismda (ma'ruza) fanning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tuzatish orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida etkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bulayotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar iqtisodiyotini erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning usul va masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

1. “Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti” fanining predmeti, vazifalari va o'rganish usullari

«Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining predmeti. Agrosanoat majmuasida iqtisodiy qonunlarni amal qilishning o'ziga xos xususiyatlari. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining ahamiyati. Agromarketing masalalari. Agrosanoat majmuasining moliya-kredit masalalari. Xorijiy davlatlar agrosanoat majmuasining holati va mavjud ilg'or tajribalar. Faning tarkibi. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining boshqa iqtisodiy fanlar o'rtasida tutgan o'rni. Iqtisodiy fanlarning bir-birini boyitib, to'ldirib borishi. «Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti» fanining predmetini o'rganish usullari. Iqtisodiy tahlil. Iqtisodiy tajriba. Qiyosiy tahlil. Statistik. Induksiya va deduksiya. Farixiy dialektika. Monografik tahlil. Taqqoslash usuli. Iqtisodiy matematik va boshqa usullar. Faning vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'ruzasidan kelib chiqqan holda faning maqsadi va vazifalari.

2. Agrosanoat majmuasining mazmuni, mohiyati va tarkibi

Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi tushunchasi, uning mohiyati. Agrosanoat majmuasining tarkibi (tuzilmasi). Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar agrosanoat majmuasining birmichi sohasi. Qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining markaziy bo'g'ini. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, dastlabki va chuqur qayta ishlovchi hamda tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga etkazib beruvchi tarmoqlar. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma. Agrosanoat majmuasining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy maqsadi muammolari. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarini mutanosib rivojlantirish masalalari.

3. Qishloq xo'jaligini moddiy – texnika resurslari bilan ta'minlash va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi infratuzilmalar

Infratuzilma tushunchasi, uning mohiyati. Agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasining ahamiyati va iqtisodiyotdagi o'rni. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibi. Transport, yo'llar, omborxonalar, muzxonalar, texnikalarni ta'mir etuvchi, qurilish bilan shug'ullanuvchi, mineral o'g'it, kimyoviy vositalar, texnikalar, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqalar bilan ta'minlovchi korxonalar va tashkilotlar. Ishlab chiqarishni suv ta'minoti bilan shug'ullanuvchi sohalar. Aloqa, urug'chilik va zooveterinariya xizmatlari. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etishga bo'lgan talablar va ularni joylashtirish tamoyillari. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasining

iqtidosiy va ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni hisoblash usullari. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish borasida davlatning olib borayotgan siyosati. Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

4. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish

Qishloq xo'jaligida erining asosiy ishlab chiqarish vositasi ekanligi. Qishloq xo'jaligida erining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida o'ziga xos xususiyatlari. Er fondining cheklanganligi va uning bir kishiga to'g'ri keladigan miqdorining tobora kamayib borishi. Er sifati. Unumdorlikka ta'sir etuvchi omillar va uning pasayib borishga moyilligi. Er rentasi. Er bahosi va uni aniqlash usullari. O'zbekiston Respublikasi er fondi va uning klassifikatsiyasi. Er fondining foydalanuvchilar o'rtasida taqsimlanishi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli erlar va ularning tarkibi. Ijoiy va salbiy er transformatsiyasi. Qishloq xo'jaligida erdan foydalanish darajasini va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Ularni aniqlash usullari. Qishloq xo'jaligida erdan foydalanishning darajasi va samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar. Erdan foydalanishning darajasini va samaradorligini oshirish yo'llari. O'zbekiston Respublikasida erdan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan huquqiy asoslar. Er ijarasi. Er islohotlari. Er va suv munosabatlarini takomillashtirish. Respublika qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish.

5. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari va ulardan foydalanish

Mehnat tushunchasi, uning mohiyati. Mehnat resurslari tushunchasi. Agrosanoat majmuasida mehnat bozori. Agrosanoat majmuasida mehnat resurslari ularning tarkibi va sifati. Agrosanoat majmuasida mehnat resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Mehnatning mavsumiyliigi. Qishloq xo'jaligida ihsizlik, uning turlari va bandlik. Agrosanoat majmuasida mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Ularni hisoblash usullari. Mehnat unumdorligi tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati. Agrosanoat majmuasida mehnat unumdorligining hozirgi darajasi. Mehnat unumdorligi darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Agrosanoat majmuasi sohalarning, uning tarmoqlarining o'zaro munosib rivojlanishi mehnatning unumdorligini darajasiga ta'sir qiluvchi omil sifatida. Mehnat resurslari migratsiyasi. Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi.

6. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari va ulardan foydalanish

Agrosanoat majmuasining moddiy-texnika bazasi tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati. Agrosanoat majmuasining moddiy-texnika bazasini tarkibi. Asosiy fondlar tushunchasi, iqtisodiy mohiyati va ularning tarkibi. Ishlab chiqarishga jalb

qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlari. Ishlab chiqarishga jalb etilmagan lekin uni tashkil etishga yordam beruvchi asosiy fondlar. Asosiy fondlarni baholash turlari va ularni aniqlash usullari. Asosiy fondlarning balans yoki to'liq boshlang'ich qiymati. Asosiy fondlarning qoldiq qiymati. Asosiy fondlarni tiklash qiymati. Asosiy fondlardan foydalanish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ularni aniqlash usullari. Agrosanoat majmuasida asosiy fondlarning jismonan va ma'naviy eskirishi. Amortizatsiya fondi va uni hisoblash usullari. Amortizatsiya fondidan foydalanish. Asosiy fondlarni yangilash va ko'paytirish manbalari. Asosiy fondlarning samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar. Asosiy fondlarning samaradorligini oshirish yo'nalishlari. Aylanna mablag'lar tushunchasi. Aylanna mablag'larining ahamiyati va tarkibi. Aylanna fondlar va ularning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Muomiladagi mablag'lar. Debitor va kreditorlik qarzar muammosi va uni kamaytirish yo'llari. Ombordagi tayyor mahsulotlar miqdori va ularni talab darajasidan oshib ketmasligini ta'minlash. Aylanna mablag'larining manbalari. Aylanna mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

7. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi

Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi. Tannarx tushunchasi, uning mohiyati. Agrosanoat majmuasida tannarxning turlari. Ularning bir-biridan farqlari. Agrosanoat majmuasini mahsulotlari tannarxini hisoblash usullari. Agrosanoat majmuasida tannarx kalkulyatsiyasi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari mahsulotlari tannarxi dinamikasi. Mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi omillar. Mahsulot chorva mollari va serhosil ekin navlarini ishlab chiqarishga joriy etishning tannarxiga ta'siri. Ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish va tannarx. Ishchi, xizmatchi va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tizimi va tannarx. Tejamkorlik va tannarx muammolari. Ishlab chiqarishni tashkil etish uchun korxonalar tashqaridan sotib olayotgan tovarlar (o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari, elektr energiya, suv, xizmatlar, texnika, texnologiya va b. k.) narxi va ularning o'sish dinamikasi. Tarmoqlar o'rtasidagi almashinuv balansi va uning o'zgarishi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish yo'llari.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanining predmeti, vazifalari va o'rganish usullari.
2. Qishloq xo'jaligini moddiy - texnika resurslari bilan ta'minlash va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi infratuzilmalar.
3. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish.
4. Qishloq xo'jaligi mehnat resurslari va ulardan foydalanish.
5. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari va ulardan foydalanish.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishini asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat, taqdimot) tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha faning bo'lim yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarining o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan faning bo'lim va mavzularini chuqur o'rganish;
- keyis-stadlar va o'quv loyihalarini mustaqil bajara olish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish;
- ilmiy maqola, tezislar, turli ilmiy anjumanlarga ma'ruza tayyorlash va xokazo.

Mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keyis-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy topshiriq, keyis-stadlar echiş uslubini va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Agrosanoat majmuasi – "Harakatlar strategiyasi"ning beshta ustuvor yo'nalishlari asosida rivojlanish holati.
2. O'zbekiston Respublikasida agrosanoat majmuasini rivojlantirishning istiqbolli holati.
3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida agrosanoat majmuasining rivojlanish holati.
4. Qishloq xo'jaligi korxonalari resurslardan foydalanish samaradorligi.
5. Agrosanoat majmuasi integratsiyasi.
6. Qishloq xo'jaligida ishchi kuchi bilan ta'minlanish.
7. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.

8. Agrosanoat majmuasiga xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

9. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishda ehti el tajribasi.

10. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti.

11. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish strategiyasi.

12. Agrosanoat majmuasida investitsiya loyihalari.

13. Agrosanoat majmuasida fan-texnika taraqqiyoti.

14. O'zbekiston Respublikasida er va suv resurslaridan samarali foydalanish.

15. Chetorvachilik mahsulotlarini etishtirish va ularni eksport qilish holati.

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy ilg'or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia va elektrodidaktik texnologiyalardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, blits-so'rov, guruh bilan ishlash, taqdimot kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik) – T.: TDIU, 2006 – 346 bet.
2. Jo'raev I. – "Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish (darslik) – T.: "Isuqlot", 2004 – 343 bet.
3. Экономика отраслей АПК/ И.А.Минаков, Н.И.Куликов, О.В. Соколов и др. Под ред. И.А.Минакова. – М.: КолосС, 2004. – 464 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
5. Попов Н.А. Экономика сельского хозяйства: Учебник. – М.: Изд-во «Делю и Сервис», 2000-326с.
6. Gail L. Cramer, Clarence W. Jensen, Douglas D. Southgate, Jr. Agricultural economics and agribusiness. – New York, 2001. – 519 page.
7. Xakimov R., Otqulov M., Yusupov E., Yusupov M. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti – (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 160 bet.
8. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R.X., Yusupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (o'quv qo'llanma) – T.: 2004. – 176 bet.

9. Salimov T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.L.,
Xakimov R.X., O'roqov N.I., Aripov I.M. Jahon qishloq xo'jaligi (o'quv qo'llanma) –
t.: TDU, 2004 – 128 bet.

Internet saytlari

10. www.economics.ru
11. www.uza.uz
12. www.lex.uz
13. www.ziynet.uz
14. www.stat.uz
15. www.ziynet.uz